



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA Olish USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI



Umarova Gulzodxon Qodirbekovna
Katta o'qituvchi
Andijon fakulteti
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti
E-mail: rustamjonumarov252@gmail.com
ORCID:0009-0000-8859-4840

ABSTRACT. This article examines the key areas of measures aimed at supporting small business entities and stimulating their financing. The analysis reveals that there are opportunities for further improvement in the financial support system for small businesses in the Andijan region. One of the key areas is the diversification of external financing sources, as bank loans currently occupy a significant place, while alternative financing methods—such as leasing, factoring, venture capital, trade credit, warehouse receipts, and crowdfunding—have considerable potential for further development in the region. The article outlines the main directions for supporting small businesses and encouraging their financing and presents scientifically grounded proposals.

Keywords: small business, alternative financing, crowdfunding, P2P lending, venture capital, financial inclusion, foreign experience, Uzbekistan.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularni moliyalashtirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlari o'rganilgan. Olib borilgan tahlil natijalari Andijon viloyati kichik biznes subyektlarining moliyaviy ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi. Muhim yo'nalishlardan biri tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish bo'lib, hozirgi vaqtda bank kreditlari muhim o'rin egallaydi, muqobil moliyalashtirish usullari, jumladan, lizing, faktoring, venchur kapital, savdo krediti, ombor tilxati va jamoaviy moliyalashtirish (kraudfanding) esa viloyat miqyosida yanada rivojlantirish uchun salmoqli imkoniyatlarga ega. Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularni moliyalashtirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlari hamda ilmiy asoslangan takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, muqobil moliyalashtirish, kraudfanding, P2P kreditlash, venchur kapital, moliyaviy inklyuzivlik, xorijiy tajriba.

Аннотация. В статье рассматриваются ключевые направления мер, нацеленных на поддержку субъектов малого бизнеса и стимулирование их финансирования. Анализ показывает наличие возможностей для дальнейшего совершенствования системы финансовой поддержки малого бизнеса Андижанской области. Одним из ключевых направлений является диверсификация источников внешнего финансирования: в настоящее время значительное место занимают банковские кредиты, тогда как



альтернативные методы — такие как лизинг, факторинг, венчурное финансирование, коммерческий кредит, складские свидетельства и краудфандинг — обладают существенным потенциалом для дальнейшего развития в регионе. В статье определены основные направления поддержки малого бизнеса и стимулирования его финансирования, а также представлены научно обоснованные предложения.

Ключевые слова: малый бизнес, альтернативное финансирование, краудфандинг, P2P-кредитование, венчурный капитал, финансовая доступность, зарубежный опыт.

KIRISH

Olib borilgan tahlil natijalari Andijon viloyati kichik biznes subyektlarining moliyaviy ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda tashqi moliyalashtirishda bank kreditlari muhim o'rin egallaydi, muqobil moliyalashtirish usullari, jumladan, lizing, faktoring, venchur kapital, savdo krediti, ombor tilxati va jamoaviy moliyalashtirish (kraudfanding) esa viloyat miqyosida yanada rivojlantirish uchun salmoqli imkoniyatlarga ega. Bizningcha, bunday holat mintaqada moliyaviy infratuzilmaning asosan banklar va davlat jamg'armalari kanallari orqali shakllanganligi bilan izohlanadi. Shu sababli tadqiqot kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ularni muqobil moliyalashtirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlarini ilmiy asoslashga qaratildi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — kichik biznesni muqobil moliyalashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni tizimli tahlil etish va ulardan O'zbekiston uchun amaliy xulosalar chiqarishdir. Tadqiqot natijalari moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, kichik biznes subyektlarining kapitalga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muqobil moliyalashtirish sohasidagi ilmiy adabiyotlar so'nggi o'n yil ichida sezilarli darajada kengaydi. E. Mollick kraudfanding sohasidagi tadqiqotida ushbu mexanizmning nafaqat moliyaviy, balki bozorni tekshirish va ijtimoiy kapital shakllantirish funksiyalarini ham bajarishi mumkinligini asoslab berdi [8]. Shu yo'nalishda P. Belleflamme, T. Lambert va A. Schvienbacher mukofotga asoslangan va ulushga asoslangan kraudfandingni taqqoslab, har birining afzalliklari va cheklovlarini belgilab berdi [2].

P2P kreditlash sohasida Berger va Gleisnering ishonch mexanizmlari va ijtimoiy ma'lumotlar haqidagi tadqiqoti fundamental ahamiyat kasb etadi. Ular investorlar tomonidan to'liq foydalaniladigan ijtimoiy ma'lumotlar kredit qarorlarida muhim rol o'ynashini empirik jihatdan isbotlagan [3]. Keyinchalik, R. Emekter, B. Jirasakuldech va M. Lu "LendingClub" tashkiloti ma'lumotlari asosida P2P kreditlashda kredit xavfini baholash modelini ishlab chiqdi [5].

Rivojlanayotgan bozorlar kontekstida Beck va Demircuc-Kuntning ishida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishga ta'sir etuvchi tarkibiy omillar — axborot asimmetriyasi, huquqiy tizimni yanada takomillashtirish imkoniyatlari va moliya bozori chuqurligi — tahlil qilingan. Ularning xulosasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish uchun faqat kredit liniyalarini kengaytirish yetarli emas, balki institutsional mexanizmlarni izchil takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega [1].

Xalqaro darajadagi amaliy tavsiyalar orasida OECD tashkilotining "Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish vositalari" hisoboti alohida e'tiborga sazovor. Unda P2P kreditlash, kraudfanding va zanjir moliyasi bo'yicha OECDga a'zo 25 ta davlatning tajribasi taqqoslangan bo'lib, samarali tartibga solish muhitining asosiy elementlari aniqlab berilgan [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida iqtisodiy hodisalarni o'rganishning dialektik va tizimli yondashuv tamoyillariga tayanildi. Tadqiqot davomida qiyosiy va tahliliy o'rganish, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash, monografik kuzatuv, tanlanma kuzatuvlar, ekspert baholash hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi, shuningdek, maqola matnini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha yordamchi vosita sifatida foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, tahlilning tushunchaviy asosini aniqlashtirib olish zarur, zero maqola sarlavhasida o'zaro bog'liq, ammo bir-biridan farq qiluvchi ikki tushuncha — «qo'llab-quvvatlash» va «rag'batlantirish» — qatnashadi. Bizningcha, qo'llab-quvvatlash deganda davlatning kichik biznes oldidagi obyektiv to'siqlarni bevosita yengillashtirishga qaratilgan choralari (imtiyozli resurs, kafolat, ma'muriy yengilliklar) tushunilsa, rag'batlantirish deganda bozor ishtirokchilarini muqobil moliyalashtirish instrumentlaridan ixtiyoriy ravishda foydalanishga undovchi iqtisodiy turtkilar (soliq imtiyozlari, xavfni taqsimlash, axborot infratuzilmasi) majmuasi nazarda tutiladi. Mazkur farqlanish amaliy ahamiyatga ega: agar qo'llab-quvvatlash choralari ko'pincha davlat resurslarini bevosita yo'naltirishni taqozo etsa, rag'batlantirish choralari xususiy va institutsional kapitalni muqobil moliyalashtirishga jalb etish orqali davlat resurslaridan yanada samarali foydalanishga xizmat qiladi. Aynan shu sababli, nazarimizda, istiqbolda qo'llab-quvvatlashning bevosita shakllarini rag'batlantirishning bilvosita, bozorga asoslangan shakllari bilan bosqichma-bosqich uyg'unlashtirib borish maqsadga muvofiq.

Tahlilni davom ettirishdan avval muqobil moliyalashtirish instrumentlarining tarkibiy spektrini aniqlashtirib olish lozim, zero «muqobil moliyalashtirish» atamasi yagona, bir jinsli vositani emas, balki an'anaviy bank kreditidan farq qiluvchi instrumentlar majmuasini anglatadi. Bizningcha, ushbu spektrni uchta yirik guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

birinchidan, aktivga asoslangan instrumentlar (lizing, faktoring, ombor tilxati), ularda moliyalashtirish garovga emas, balki muayyan aktiv yoki debitorlik qarzi qiymatiga bog'lanadi;

ikkinchidan, ulushli ishtirokka asoslangan instrumentlar (venchur kapital, biznes-farishta moliyalashtirish), ularda investor korxona kapitalida ishtirok etadi;


uchinchidan, jamoaviy va raqamli instrumentlar (jamoaviy moliyalashtirish, P2P kreditlash), ular ko'plab kichik investorlarning mablag'larini raqamli platforma orqali birlashtiradi. Har bir guruh o'ziga xos axborot talablari, xavf profili va institutsional shartlarga ega. Ularni rag'batlantirish choralari ham bir xil bo'la olmaydi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda kichik biznesni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng qamrovli normativ-huquqiy baza shakllantirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarori bilan kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari belgilab berilib, "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish mexanizmlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlari hamda Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish yo'nalishlari belgilandi.[1]

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi moliyalashtirish mexanizmlari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son qarori bilan tartibga solingan bo'lib, uning ayrim normalari 2025-yil 15-apreldagi PQ-142-son qaror bilan takomillashtirildi.[2] Mazkur hujjatlarda kreditlash shartlari, moliyaviy resurslarni joylashtirish hamda tegishli moliyalashtirish mexanizmlarini amalga oshirish tartiblari nazarda tutilgan. Bizningcha, ushbu chora-tadbirlar kichik va oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bank kreditlari bilan bir qatorda muqobil moliyalashtirish instrumentlarini ham bosqichma-bosqich kengaytirish kichik biznes uchun moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini yanada oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-son qarori bilan "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi yanada takomillashtirildi.[3] Mazkur qarorda hududlar toifasidan kelib chiqib mikrokreditlarni qayta moliyalashtirish va kredit tavakkalchiligini taqsimlashning tabaqalashtirilgan mexanizmlari belgilangan. Xususan, 3-, 4- va 5-toifadagi hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlariga mikrokreditlar ajratish bo'yicha qo'shimcha choralarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Nazarimizda, hududiy tabaqalashtirilgan yondashuv Andijon viloyatining turli tumanlaridagi iqtisodiy sharoitlar va resurs salohiyatini hisobga olish imkonini beradi. Shu sababli viloyat miqyosida ham moliyaviy instrumentlarni hududlarning xususiyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda qo'llash maqsadga muvofiq. Mazkur dasturda mikrokreditlash mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, kelgusida ularni muqobil moliyalashtirish instrumentlari bilan uyg'unlashtirish kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Yuqorida bayon etilgan yo'nalishlar, asosan, taklif tomoniga, ya'ni moliyaviy institutlar va instrumentlarga qaratilgan. Ammo muqobil moliyalashtirishni rivojlantirishda talab tomoni — kichik biznes subyektlarining bu instrumentlardan foydalanishga tayyorligi — ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab tadbirkorlar lizing, faktoring yoki ombor tilxati kabi instrumentlarning mohiyati va afzalliklaridan yetarli darajada xabardor emas, bu esa hatto mavjud imkoniyatlardan ham foydalanmaslikka olib keladi. Shu bois, nazarimizda, axborot-raqamli yo'nalish doirasida tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, ularni muqobil instrumentlar bo'yicha maslahat va o'quv dasturlari bilan ta'minlash alohida ustuvor vazifa sifatida belgilanishi lozim (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznesni muqobil moliyalashtirishni rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari tizimi¹

Yuqorida asoslab berilgan beshta yo'nalish o'zining mazmuni, asosiy chora-tadbirlari va maqsadli muqobil instrumentlari bo'yicha quyida umumlashtirilgan (1.1-jadval).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularni moliyalashtirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlari o'rganildi, ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari har tomonlama tahlil qilindi va natijada quyidagi xulosalar olindi:

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ajratib ko'rsatilgan beshta yo'nalish alohida-alohida, bir-biridan uzilgan holda amalga oshirilsa, kutilgan natijani bermaydi. Ular faqat yagona, o'zaro muvofiqlashtirilgan tizim sifatida ishlaganidagina kichik biznes subyektlarining muqobil moliyalashtirishga bo'lgan real ehtiyojini qondira oladi.

Muqobil moliyalashtirish instrumentlari spektrini bir xil xususiyatga ega bo'lgan yagona tizim sifatida baholash to'g'ri emas. Mazkur instrumentlar axborot talablari, xavf darajasi va institutsional sharoitlari jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli ular aktivga asoslangan instrumentlar, ulushli ishtirokka asoslangan instrumentlar hamda jamoaviy va raqamli instrumentlar kabi uchta asosiy guruhga ajratiladi. Ushbu

1 Muallif ishlanmasi.



guruhlarning barchasini birlashtirib turuvchi asosiy iqtisodiy mintiq shundan iboratki, ularda korxona balansidagi an'anaviy garov ta'minoti boshqa turdagi ta'minot bilan almashtiriladi. Bunda ta'minot sifatida debitorning to'lov qobiliyati, moliyalashtirilayotgan aktivning o'zi, omborda saqlanayotgan mahsulot, ta'minot zanjiridagi yetakchi korxonaning kredit sifati yoki kelgusidagi qiymat o'sishida ishtirok etish huquqi xizmat qiladi. Mazkur holatdan kelib chiqadigan amaliy xulosa shundan iboratki, ushbu instrumentlar guruhlariga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish choralarini yagona yondashuv asosida belgilash maqsadga muvofiq emas. Aksincha, ularni har bir guruhning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan tarzda ishlab chiqish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint // Journal of Banking & Finance. – 2006. – Vol. 30, No. 11. – P. 2931–2943. – DOI: 10.1016/j.jbankfin.2006.05.009.
2. Belleflamme P., Lambert T., Schwienbacher A. Crowdfunding: Tapping the right crowd // Journal of Business Venturing. – 2014. – Vol. 29, No. 5. – P. 585–609. – DOI: 10.1016/j.jbusvent.2013.07.003.
3. Berger S. C., Gleisner F. Emergence of financial intermediaries in electronic markets: The case of online P2P lending // Business Research. – 2009. – Vol. 2, No. 1. – P. 39–65. – DOI: 10.1007/BF03343528.
4. Cambridge Centre for Alternative Finance. The 2nd Global Alternative Finance Market Benchmarking Report [Elektron resurs]. – Cambridge: Cambridge Judge Business School, University of Cambridge, 2021. – URL: <https://www.jbs.cam.ac.uk/faculty-research/centres/alternative-finance/publications/the-2nd-global-alternative-finance-market-benchmarking-report/> (murojaat sanasi: 14.08.2026).
5. Emekter R., Tu Y., Jirasakuldech B., Lu M. Evaluating credit risk and loan performance in online peer-to-peer (P2P) lending // Applied Economics. – 2015. – Vol. 47, No. 1. – P. 54–70. – DOI: 10.1080/00036846.2014.962222.
6. KfW Bankengruppe. Annual Report 2023 [Elektron resurs]. – Frankfurt am Main: KfW Group, 2023. – URL: <https://www.kfw.de/About-KfW/Reporting-Portal/Reporting-2023/> (murojaat sanasi: 14.08.2026).
7. KOSME (Korea SMEs and Startups Agency). 2023 SME & Startup Support Yearbook. – Seoul: KOSME, 2023.
8. Mollick E. The dynamics of crowdfunding: An exploratory study // Journal of Business Venturing. – 2014. – Vol. 29, No. 1. – P. 1–16. – DOI: 10.1016/j.jbusvent.2013.06.005.
9. OECD. New Approaches to SME and Entrepreneurship Financing: Broadening the Range of Instruments. – Paris: OECD Publishing, 2015. – DOI: 10.1787/9789264240957-en.
10. World Bank. Boosting SME Finance for Growth: The Case for More Effective Support Policies [Elektron resurs]. – Washington, DC: World Bank, 2024. – URL: <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/fd37aeef-7d04-4bf3-a2bf-d10b80ba753a> (murojaat sanasi: 14.08.2026).
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Rasmiy statistika [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika> (murojaat sanasi: 14.08.2026).
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6609110> (murojaat sanasi: 14.08.2026).
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6862227> (murojaat sanasi: 14.08.2026).
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-son «“Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash” kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-7093832> (murojaat sanasi: 14.08.2026).
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ-142-son «Qarzdorlik hisobiga banklar balansiga olingan mol-mulklar realizatsiyasini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-7479146> (murojaat sanasi: 14.08.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>